

## Geologlar Oqtosh maydonini tadqiq qildilar

***O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 12 dekabrda  
“Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha  
chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida geologiya yo‘nalishida olimlar va  
soha mutaxassislariga bir qator topshiriqlar yuklatilgan.***



Jumladan, qaror doirasida Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi va tegishli oliy o‘quv yurtlari tajribali olimlari va geologlaridan iborat mutaxassislar guruhi viloyatning turli tuman va shaharlariga bir yil muddatga safarbar etildi. Ularning asosiy vazifasi - hududlarda geologik tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, mineral xomashyo bazasini kengaytirish hamda sohaning innovatsion rivojiga hissa qo‘shishdan iboratdir.



Navoiy bo'limining geologiya va konchilik ishi sohalarida faoliyat olib borayotgan ilmiy xodimlari va doktorantlaridan iborat kichik ishchi guruh muntazam ravishda joylarga chiqib, geologik tadqiqotlar olib bormokda.



Bu safar 16 mart kuni mazkur guruh a'zolari Navbahor tumanida joylashgan Oqtosh maydonida geologik dala ekspeditsiyasida bo'ldilar. Bunda hududning geologik tuzilishi, qazib olish salohiyati va infratuzilmasi chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, bu yerda sochma kon uchastkalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning ishlab chiqarish jarayonida uchrayotgan muammolari o'rganilib, ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli amaliy tavsiyalar berildi.



Shuni ta'qidlash joiz-ki, 2025 yil 2 aprelda “E-auksion” platformasi o'tkazilishi rejalashtirilgan auksion savdosiga oltin izlovchilar usulida qazib olish uchun chiqarilgan 21ta yangi oltin uchastkalaridan 4tasi Oqtosh maydoniga tegishlidir.





Kelgusida Oqtosh maydonida qazib olish jarayonlarini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha dasturlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

**FA Navoiy bo‘limi matbuot xizmati.**